



PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE COCOON INDUSTRY IN SURKHANDARYA REGION

Yarkinoy Samandarova

Master's student

Termiz State University

Termiz, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Sericulture Research Institute, cocooning network, cocooning enterprises, live cocoon, mulberry, silkworm, shell, mushroom, mushroom

Abstract: In this article, the scientific and practical basis of the development of cocoons in Surkhandarya region is studied and analyzed.

Received: 12. 12. 22

Accepted: 14. 12. 22

Published: 16. 12. 22

SURXANDARYO VILOYATIDA PILLACHILIK TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Yorqinoy Samandarova

Magistrant

Termiz Davlat universiteti

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ipakchilik ilmiy tadqiqod instituti, pillachilik tarmog'i, pillachilik korxonalari, tirik pilla, tut, ipak qurti, qobiq, g'umbak, g'umbak

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyatida pillachilikni rivojlantirishning ilmiy-amaliy asoslari o'rganilgan va tahlil qilingan.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ КОКОНОВОДСТВА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Яркиной Самандарова

студент магистратуры

Термезский государственный университет

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: НИИ шелководства, коконная сеть, коконные

Аннотация: В данной статье изучены и проанализированы научно-практические

KIRISH

O'zbekistonda pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi Prezident ber necha qarori qabul qilingan. Jumladan, 2019-yil 31-iyul kuni "Pillachilik tarmog'ida chuqur qayta ishlashni rivojlantirish" bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko'ra 2022-yil 1-avgustgacha pillachilik korxonalariga 8 turdagi mahsulotlarni dunyoni eng rivojlangan davlatlari bo'lgan AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari va Turkiyaga singari davlatlarga eksport qilishda havo va temir yo'llari transportida tashish harajatlarining 50 % gacha miqdorni davlat budjetidan kompensatsiya qilish uchun subsidiya beriladi deb alohida ta'kidlab o'tilgan.

Shuningdek, tirik pillani yetishtirish xizmati narxini 2020-yil kamida 20 % ga, 2021-yildan yana kamida 10 % ga oshirilishi choralari ko'rish belgilandi.

ASOSIY QISM

Respublikamizda Ipakchilik ilmiy tadqiqod instituti tasarrufida Farg'ona, Samarqand, Xorazm, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatida naslli ipak qurti urug'i yetishtiruvchi muassasalar tashkil etildi. 2022-yil 1-avgustga qadar O'zbek sanoat korxonalariga ipak qurti urug'larini bojxona rejimiga loyixalashtirishga ruxsat berildi.

O'zbekistonda pillachilikni rivojlantirish uchun ilmiy-nazariy jihatdan chuquroq o'rganib chiqishni taqozo qiladi. Ipakchilikni asosini tashkil qiladigan pilla qurti haqida ham qisqacha ma'lumotlar berib o'tamiz.

Tut ipak qurti pillasi tuxumsimon, silindrsimon yoki uchqursimon: oq, oqkulrang, sariq, pushti va ko'kish bo'ladi, suv o'tkazmaydi. Tortiladigan pilla kapalak ochmasligi uchun issiq havo yoki bug' bilan ishlanib g'umbagi o'ldiriladi, saqlashda buzulmasligi uchun qurutiladi. Ipak qurtlari o'zidan fibroin, seritsin (yopishqoq modda) pigment va boshqa moddalardan iborat ipak ishlab chiqarib o'z tanasi atrofida qavatma-qavat qilib (40 qavatgacha) pilla o'raydi. Pilla asosan qobiq, g'umbak va g'umbakka aylanish davrida qurt tashlab teridan iborat. Tirik g'umbakli pilla og'irligining 14-24 % ni pilla qobig'i, 75-85 % ni g'umbak, 0,5 % ni qurt tashlagan po'st tashkil etadi. Bir dona pilladan o'rtacha 600-800 metr ipak tolasi olinadi. Qurt zoti va uni boqish sharoitlariga qarab pilla uzunligi 16 mm dan 46 mm gacha, eni 12 mm dan 24 mm gacha, tirik (g'umbagi o'ldirilmagan) pilla og'irligi 1,2-3,0 gram quruq pilla og'irligi 0,3-1,3 gram bo'lishi mumkin.

Ma'lumki xar yili aprel, may, iyun oylarida yurtimizda ipak (pilla) urug'ini olib kelish pilla qurti boqish hamda tayyor mahsulotlarni pillachilik korxonalariga yetkazib berish borasida keng ko'lamlilik ishlar olib boriladi. Ayni vaqtda Surxandaryo viloyatida xam bu borada jadal ishlar

amalga oshirilmoqda. Joriy yil vohamiz 40172 quti ipak qurtlarini parvarishlab 2290 tonna (1544 tonna fermerlar va 746 tonna kasanachilar) pilla yetishtirishni rejalashtirilgan edi va amalda bu rejalar bajarildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti olimlari tomonidan ipak qurti g‘umbagi - “Bombeks mori” dan olingan xitozan asosida yangi hususiyatga ega polimer tarkibli metal- komplekslar, sulfat suksinat xitozan, karboksin va ularning nanotuzulishiga ega hosilalari olingan. Ularni qishloq xo‘jaligi, farmaseftika, tibbiyot, parfyumeriya va boshqa sohalarda keng qo‘llanilishi mumkinligi isbotlangan.

Xitozan asosida yaratilgan ekologik xavfsiz polimer tarkibga ega qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘lari ekishdan avval kapsulada qo‘llanilishi mumkinligi ko‘rsatilgan. Surxondaryo ipakchilik tajriba – ishlab chiqarish bazasida oxirgi yillarga fermer xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi vazirligi korxonalari talablari asosida 50-80 t miqdorda “Uzxitan” preparati ishlab chiqarilayapti.

G‘umbak yog‘i ipak qurti g‘umbagi tarkibiga kiruvchi lak-bo‘yoq va parfyumeriya korxonalari uchun qimmatbaho xom ashyo bo‘lib, uning ulushi g‘umbakda 18-22 % ni tashkil etadi. Ipak qurtini g‘umbagini kompleks qayta ishlash texnologiyasi bosqichlarida oraliq g‘umbak yog‘ini ajratib olish ko‘zda tutilgan.

Tirik organism, jumladan, chorvachilik, baliqchilik, parrandachilikda muhim o‘rin tutgan, bugungi kunda import o‘rnini bosuvchi va eksportga yo‘naltiradigan qator mahsulotlar olinadi. Masalan: aminosaxaridlar sinfi vakili xitin farmaseftika va parfyumeriya sanoatida qo‘llanilishi bilan bir vaqtda suvda erish xususiyatiga ega bo‘lgan xitozan ishlab chiqarishda asosiy hom ashyo bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Ipakchilik Ilmiy tekshish institutda olib borilgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijasida bugungi kunda amaliyotda keng qo‘llanilayotgan ekologik xavfsiz polimer shakli Uzxitan preparati Respublikamiz qishloq xo‘jaligining paxtachilik sohasida uzoq yillardan beri joriy etilib, fermer xo‘jaliklari tomonidan yuqori samaradorligi e‘irof etib kelinayotganligi sababli, tuksiz urug‘lik chigitlar ushbu preparat bilan kapsulalanib ekilayotgan fermer xo‘jaliklari soni va paxta maydonlarining kengayib borayotganligi buning yorqin dalilidir.

Surxondaryo viloyatidagi “Inter Silk Pro” MCHJ qo‘shma korxonasida ipak qurti g‘umbagini kompleks qayta ishlash texnologiyasi joriy etilishi bilan ushbu korxonada uzxitan preparatini ishlab chiqarish ham o‘zlashtiriladi.

Ipak qurti g‘umbagini kompleks qayta ishlash texnologik jarayonlarida hosil bo‘lgan chiqindi suvlar tarkibida oqsil, yog‘ va boshqa organik moddalar borligini nazarda tutgan holda, ularni atrof-muhitga salbiy ta‘sirini kamaytirish maqsadida qishloq xo‘jaligi ekinlari urug‘larini

ekishdan avval tayyorlovchi korxonalarda tukli urug'lik chigitni kimyoviy tutsizlantirish jarayonida hosil bo'ladigan tolali chiqindilarni yuqorida qayd etilgan chiqindi suvlar bilan namlash mikroelementlar va azotli, fosforidli va kaliyli o'g'it ishlab chiqaruvchi korxonalar chiqindilari bilan boyitish va komposlash orqali ekologik xavfsiz mikroelementlar bilan boyitilgan organomineral o'g'it ishlab chiqarish texnologiyas iyaratilgan.

Organik mineral o'g'it tarkibi 5,3-26,4 %, gumus 4,7-25,5 %, gumik kislotalar, azot- 1,0-2,7 %, fosfor-1,3-2,7 %, kul miqdori - 2,8- 40,0 % ni tashkil qiladi.

Ushbu texnologiyani amaliyotda joriy etish:

- birinchidan yangi xossali o'g'it olish imkoniyatini bersa;
- ikkinchidan yuqorida qayt etilgan 2 ta korxonalar texnologik chiqindilarni utilizatsiya qilish imkoniyat beradi.

FOYDALANIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy statistikasi. Toshkent 2021 y.
2. Soliyev A. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent 2014.